



NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-may

223-6-89-Q/25

Chust tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PQ–147-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 26-apreldagi 206-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PQ–147-sonli qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 26-apreldagi 206-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PQ–147-sonli qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 26-apreldagi 206-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi:

korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, raqamlashtirish, byurokratiyani qisqartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va yakunlari bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bekor qilish bo'yicha taklif kiritish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga elektron hisobot taqdim etib borish;

tegishli soha va tarmoqda korrupsiyaviy xavf-xatarlar ro'yxatini shakllantirish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlash;

davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashni imkoni beruvchi situatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar kiritish;

mehnat jamoasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik va odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish va joriy etish yuzasidan takliflar kiritish belgilanganligi;

Davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining tashkil etishning minimal mezonlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Agentlik davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy ta'minlash, ularning xodimlarini stajirovka va attestatsiyadan o'tkazish hamda malakasini oshirish bo'yicha maxsus vakolatli organ etib belgilanganligi;

Davlat organlari va tashkilotlari korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining ilk marta lavozimga tayinlangan mas'ul xodimlari ikki haftalik stajirovkadan o'tishi belgilanganligi;

davlat organlari va tashkilotlarining markaziy apparatidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining rahbarlari va xodimlari - Agentlikda;

hududiy bo‘linma va tarkibiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul xodimlari - davlat organlari va tashkilotlarining markaziy apparatidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarida;

Agentlik:

davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda ularning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari rahbarlari va xodimlari uchun har yili korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini hamda ularning qonunchilikda belgilangan tartibda har uch yilda attestatsiyadan o‘tkazilishini tashkil etib borishi;

2025-yil 1-iyulgacha “E-anticor.uz” da ichki nazorat bo‘linmalari rahbarlari va xodimlarining elektron reyestrini yuritish, hisobotni elektron taqdim etish, anonim so‘rovnomalar o‘tkazib e‘lon qilish imkonini beruvchi elektron modul ishga tushirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimligining tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Toshmatov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ–147-sonli qarori 1-ilovasiga hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 26-apreldagi 206-6-0-Q/25-sonli qaroriga asosan, tuman hokimligi boshqaruv apparati tuzilmasida, shuningdek, hokimlik tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarini tashkil etishning minimal mezonlaridan kelib chiqib shtatlar joriy etish yuzasidan viloyat hokimligiga taklif kiritsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Tuman hokimi



B.Salimjonov